

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Filologiya fanlari doktori, professor Hamidjon Homidiy tavalludining
90 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan

MUMTOZ ADABIYOTNING DOLZARB MUAMMOLARI

nomli respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami

Toshkent
24-oktyabr, 2025-yil

UO‘K 821.222.1-1

KBK 84-5

M 37

Mumtoz adabiyotning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami [Matn]. — Toshkent: “Anorbooks”, 2025. — 584 b.

Ushbu to‘plamda “Mumtoz adabiyotning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumaniga yuborilgan maqolalar jamlangan. Xususan, filologiya fanlari doktori, professor Hamidjon Homidiy tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan mazkur anjumanda olimning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, shuningdek, o‘zbek mumtoz adabiyotining o‘rganilishi va ta’lim bosqichlarida o‘qitilishiga doir maqolalar o‘rin olgan.

Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Mualliflar qarashlari va asarlar nomlaridagi imlo tabririyyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Mas’ul muharrir:

Sohiba Umarova,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nashrga tayyorlovchilar:

Matluba Jabborova, Quvonchbek Mamiraliyev, Husan Maqsudov

Tahrir hay’ati:

Marg‘uba Abdullayeva, Ozoda Tojiboyeva, Husnigul Jo‘rayeva, Iroda Ishonxonova, Mahfuza To‘ychiyeva, Oqila To‘raqulova, Surayyo Inomjonova, Sevinch Yoqubova, Mahliyo Elboyeva, Nasiba Jo‘raqulova, Dilafro‘z Nazarova, Oysuluv Musurmonkulova, Dilnavoz Boyzoqova

ISBN: 978-9943-8790-0-3

© Mumtoz adabiyotning dolzarb muammolari, 2025

© “Anorbooks”, 2025

“SHOHNOMAYI TURKIY” MANBALARI

Ozoda TOJIBOYEVA,

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
dotsenti, PhD*

Annotatsiya

Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” dostoni XVII asrda o‘zbek adibi Mullo Mirzo Xomushiy tomonidan o‘zbek tiliga nasriy yo‘l bilan tarjima qilingan edi. “Shohnomayi turkiy” deb nomlangan mazkur asar o‘tgan asr boshlarida ko‘plab martalab ko‘chirilgan, toshbosma matbaalarda nashr etilgan. Mazkur maqolada kitobning manbalari, undagi noshirlar, kotib va musavvirlar mehnati haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: *manba, doston, toshbosma matbaa, noshir, xattot, kitobxon.*

Jahon adabiyotining durdona asarlaridan biri Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asari XVII asrda o‘zbek adibi Mullo Mirzo Xomushiy tomonidan o‘zbek tiliga nasriy yo‘l bilan tarjima qilindi va turkiy tilga tarjima qilinganligiga ishora qilinib, “Shohnomayi turkiy” deb nomlandi. O‘zbek adabiyotida keng xalq ommasining ushbu shoh asardan bahramand bo‘lishlarida Xomushiy tarjimasining ham salmoqli hissasi bor. O‘zbekistonda toshbosma matbaalar faoliyat yurita boshlashi bilan bu kabi nodir asarlar noshirlar tomonidan ko‘p nusxada chop etilib kengroq tarqaldi. Bugungi kunda O‘zbRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida ushbu shoh kitobning 1903-yildan 1908-yillar davomida nashr etilgan toshbosma nusxalari saqlanmoqda. Mazkur nusxalar nashr etilgan yillariga qarab ularni tahrir qilib nashrga tayyorlagan noshirlarning kiritib o‘tgan qo‘shimcha ma’lumotlari bilan o‘zaro bir-biridan farqlanadi. Ushbu manbalarga murojaat qilishdan maq-

sad, nazmiy asarni nasrda ifodalagan yirik bir namunaviy asar sifatida hamda noshir va xattotlarga oid sirli, ayni damda qiziqarli bo‘lgan manbalarni aniqlash uchun ham ko‘zdan kechirdik.

Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida “Shohnomayi turkiy”ning hamma nashriy nusxalari mavjud. Jumladan, 1905-yil O.A.Porsev matbaasida nashr etilgan nusxasida asar nomi to‘liq quyidagi shaklda berilgan: “Kitobi Shohnomayi turkiy Hakim Abulqosim Firdavsiy Tusiy” [Shohnomayi turkiy, 1905]. Asar nomi yumaloq hoshiya ichiga yozilib, tashqari qismiga qizil rangli bo‘yoqda naqshlar ishlangan. Yuqori qismida “*Bo ehtimomi Mullo Mir Maxdum Shohyunus Marhum*”. Biz izlagan shaxslardan biri aynan Mir Maxdum. Kitobning so‘nggi sahifasida kotib asarni ko‘chirgan yili, kuni va ism-sharifi to‘g‘risida ma’lumot beradi: “... *Toshkentlik Mullo Boboxon iltimoslarig‘a muvofiq alhaqir al-lubod Mullo Mahmud Sayidxo‘ja kitobati bilan ehtimomig‘a yetti*”. So‘ng kichik nomukammal muhr berilib, muhr ichida aylana shaklda: “*Toshkanda Sebzor dahasig‘a tobe’ Tabibko‘cha mahallalik Mir Maxdum Shohyunus o‘g‘li sa’y-xarajati ila ehtimomig‘a yetti*”. Demak, kitob Mir Maxdumning noshirligi va homiyligi evaziga nashr etilgan.

Kitobning 2-sahifasidan asar matni qadimiy an’anaga muvofiq dastlab xudo va payg‘ambarlar, aziz avliyolar madhi bilan boshlanadi: “Had-siz hamdu sano va adadsiz shukr bemuntaho ul hayi tavonog‘akim,...” So‘ng payg‘ambarlar va xalifalar na’tidan iborat she’r berilib, 3-sahifadan asosiy asar matni Eron shohlari shajarasi ta’rifidan boshlanadi. 535 sahifa hoshiyasida “Iskandarg‘a” yozuvi qayd etilgan. Kitob tarkibida “Iskandarnoma”ning o‘zbek tilidagi nasrda ifoda etilgan matni ham mavjud.

“Shohnomayi turkiy”ning “Shirkati xayriya” tomonidan ham nashr etilgan nusxasi mavjud bo‘lib, unga 45dan ziyod suratlar ishlangan [Shohnomayi turkiy, 1908].

Asarning yana bir 1908-yil Orifjonov matbaasida nashr etilgan nusxasi 1905-yilgi nusxasidan anchagina farq qiladin [Shohnomayi turkiy 1908b]. Kitob Mullo Sayid Akobir va Mulla Murtazo ehtimomiga binoan nashr

etilgan. Xattot Rahmatulloh ibn Abdushukur. Kitobning titul varag'i va dastlabki varaqlariga ajoyib tarzda naqshlar ishlangan va zarhallangan. 1905-yil nashr qilingan yuqoridagi nusxasida suratlar ishlanmagan, bezaklari ham oddiyroq, mazkur nusxada esa asar mazmuniga monand qirقدan ziyod suratlar ishlangan, naqshinkor bezaklar bilan sayqal berilgan. Bezak va suratlar kitobni haqiqiy san'at asari darajasiga ko'targan. Musavvir ham xattotning o'zi bo'lib, kitobning xattoti va musavviri Rahmatulloh ibn Abdushukur ekanligi bilan ham qimmatga egadir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'zbekistonda kitobat san'ati bilan birga grafika san'ati ham rivojlanib rang-barang tus ola boshlagani hamda mazkur davr ijodkorlari ijodida milliy an'ana bilan birgalikda Yevropa kitob bezash va illustrasiya ishlash san'ati uyg'unlashib borganligi kuzatiladi. Ayniqsa, ushbu muavvir ijodi alohida diqqatga sazovor ekanligi san'atshunos olimlar tomonidan alohida ta'kidlanadi [Abdullayev 2001, 168].

Ishlangan suratlar kitobning butun bir sahifasini yoki undan kichikroq o'rinlarni egallaydi. Naqsh va bezaklar ham betakror. Ushbu davr ijodkorlaridan biri Sidqiy Xondayliqiy ham bir vaqtning o'zida xattot, ham musavvir bo'lgan. Agar har ikkala ijodkor asarlari taqqoslansa, kitobxon ulardagi o'ziga xoslikni darhol payqaydi. Obrazlarni yaratishda Rahmatulloh ibn Abdushukur jozibali va ta'sirchanroq ifodalaydi. Musavvirning o'ziga xos ish uslublaridan biri qahramonlar ismini kichik o'rinda tasvir tepasiga yozib, o'quvchini ularni aralashtirib yubormaslikka o'rgatadi. Yana ish uslubining o'ziga xosligi shundaki, suratlar chetida o'zi to'g'risida qisqama'lumot berib boradi. Masalan, 217, 263, 277-betlardagi suratlar pastki qismida e'tiborni jalb qilmaydigan kichik o'rinda "*Roqim kamtarin Rahmatulloh*", 290-betda "*Faqiri al-haqir Rahmatulloh*" deb bergan bo'lsa, 333-betda to'liq ko'rsatadi: "*Roqim kamtarin Rahmatulloh ibn Abdushukur*".

Bu nashriy nusxaning boshqa nashrlaridan farqli jihati suratlar bilan bezatilishi bilan birga kerakli sharhlar, tushuntirish, kiritmalar bilan ham ta'minlanganligidir. Kitobning 10-sahifasigacha g'azallar va asarning yozi-

lish tarixi, Firdavsiy, Daqiqiydan boshlab uni tarjima qilgan Xomushiyning mehnatlarigacha qayd etiladi. Noshirlar kitobning boshqa nashriy nusxalaridan xulosalar chiqarib, har tomondan to‘kis, mukammal, sifatli nashr bo‘lishi uchun harakat qilgan. “Bu davr tarjimonlari o‘z muqaddimalarida faqat asar tarjimasining ahamiyati va qo‘llagan usullari haqida gapirib qolmay, balki o‘zlaridan oldin o‘tgan tarjimonlarning xizmatlariga baho berish, uni tanqidiy nazardan o‘tkazishga ham e’tibor qilganlar” [Komilov 1976, 78]. Demak, noshirlarning ushbu sa’y-harakati o‘quvchida muayyan tushunchalarning shakllanishida ko‘maklashadi.

Kitobning 10-sahifasida katta qilib yuqorida Firdavsiy va shoh, atrofi-da saroy a’yonlari tasvirlangan. So‘ng asarning yuzini bildiruvchi titul varaq beriladi. Asosiy matn boshlangan sahifa ham yarmiga qadar zarhal ranglarda bezaklar bilan sayqallangan. Asarning asosiy matni xuddi yuqoridagi nusxada-gidek boshlanadi, biroq so‘zlarning keyingi jumalari biroz farq qiladi. Masalan, yuqoridagi nusxada “*olamg‘a natijalar ko‘rguzubdur*”, “*bir ovuch tufroqdin*” shaklida qo‘llansa, mazkur nusxada “*olamg‘a natijalar ijod gulis-tonida jilvagar qildi*”, “*bir ovuch xokdin*” shaklida qo‘llanadi. Demak mu-alliflar kirish so‘zlardan o‘z hohishlari doirasida foydalanishgan.

Kitobning davomida “Iskandarnoma” o‘rin olgan (Asarning boshqa yillardagi nusxalarida ham “Iskandarnoma” mavjud). Musavvir asosan, “Shohnoma” qahramonlariga bag‘ishlab surat ishlagan, “Iskandarnoma”-ga esa faqat Doroning vafoti va Iskandarning jon berayotgan Doroning boshini tizzasiga olib o‘tirgan holatdagi manzarasi (475 b) ishlangan.

Endi e’tiborni boshqa asarga qaratamiz. Alisher Navoiy “Xamsa” dos-tonlarining nasriy bayoni “Nasri Xamsayi benazir” asari [Nasri Xamsayi benazir 1908]. Unda “Hayratul abror”dan tashqari to‘rtta dostonning nasriy bayoni berilgan va har biri alohida raqamlangan. Asar 1908-yili Orifjonov matbaasida nashr etilgan. Titul varaqda quyidagi ma’lumotlar bitilgan: “*Janobi shoiri fasih ul-lison Mir Alisherning “Xamsa” manzu-malaridin nasr tartibida durfishonliq aylab Mir Maxdum ibn Shohyunus ehtimomi birlan*”.

Nasriy bayonning muallifi, noshiri, homiysi Mir Maxdum ibn Shohyunus. Xattot va musavviri Rahmatulloh ibn Abdushukur. “Shohnomayi turkiy”da ayrica faoliyat olib borgan shaxslar mazkur kitobda birlashadi. Davrining eng mohir xattoti, musavviri va noshiri, adabiyot homiysining birgalikdagi faoliyati natijasida “Nasri Xamsayi benazir” asari maydonga keladi. Xattot xatni yuqori savodxonlik darajasida mayda, nafis qilib ko‘chirgan. Musavvir sifatida asar mazmuniga monand qirqdan ziyod suratlar ishlagan. E’tibor berilsa, “Shohnomayi turkiy”dagi uslub va jilolar mazkur kitobda takrorlanib keladi. Titul varaqning bezatilishi, zarhal rangda jilo berilishi, hoshiyalar hammasi o‘xshash holatda. Biroq suratlarda farqlar mavjud. Firdavsiy asarida ko‘proq ertak qaharmonlarining tasviriga o‘xshatib ishlangan bo‘lsa, Navoiy qahramonlarida uning bor musavvirlik iqtidori namoyon bo‘ladi. Iskandar, Bahrom, Farhod, Shirin siymolari salobatli, maftunkor ko‘rinishda, Majnun siymosi nomiga monand jununvash holatda tasvirilaydi. Faqat “Shohnomayi turkiy” tarkibidagi “Iskandarnoma”ga (475b) ishlangan Doroning vafoti manzarasi bir xil, “Nasri Xamsayi benazir”da (36 b) yanayam jonliroq chiqqan. Musavvir o‘zi to‘g‘risida ish uslubiga monand suratlar chetida kichik o‘rinlarda ma’lumot beradi. Masalan, “Iskandarnoma”ning yakunida (110 b) burchaklar ichida quyidagicha bitadi:

Roqim, tasvirot, faqir al-haqir Rahmatulloh ibn Mullo Abdushukur.

Roqim, tasvirot Rahmatulloh ibn Mullo Abdushukur shahri Toshkandiy.

“Qissayi haft manzari Bahrom”ning 9 sahifasidagi surat chetida: “*Tasvirot bu Rahmatulloh ibn Abdushukur*” shaklida, ushbu qissaning 65-sahifasidagi surat tepa qismida ham quyidagicha keltiradi:

Bo‘ldi bu besh hikoyai zebona

Rahmatulloh naqsh etib tasvir

Ibn Mullo Abdushukur Toshkandiy.

Ikki ulkan asarni bir yil vaqt oralig‘ida ko‘chirib, suratlar ishlashga ijodkorning vaqti, imkoniyati yetarli bo‘lganmikin, har holda asarlar ol-

dinroq ko‘chirilib, keyinroq nashr etilgan bo‘lishi mumkin. Ko‘rinadiki, o‘z ishining ustasi mohir xattot, iste’dodli musavvir bilan ishlash Mir Maxdum uchun qulay, iste’dodlar birlashib yuzaga chiqadigan imkoniyat. Mir Maxdum kitobni xuddi “Shohnomayi turkiy”dagidek an’anaviy hamd va na’tlar bilan boshlaydi. Berilgan nazmni ham qisqartirib, aynan kerakli deb bilganlarini saqlab qoladi. Xomushiyda birinchi nazmiy qator tugagandan so‘ng yana nasrda hamdu-sano davom ettirilib, so‘ngra payg‘ambarlar, chahoryorlar ta’riflangan uzun she’r beriladi. “Nasri Xamsai benazir”da birinchi nazmiy parchadan so‘ng tabdilchi hamdu-sanolarga bog‘lab, o‘z g‘oyaviy niyatini singdirib, tabdil qilishdan ko‘zlangan maqsadini izhor qiladi: *“bu kamina xodim ahli imon va nodim jahlu isyon o‘tgan azizlar va arvoh taibbalaridini istionat va yoru birodar himmatlaridini onat tilab, gustohlik qilib, kitobi “Xamsa”i Amir Navoiy Rahmatullohning bo‘stonlarini sayr qilib va ochilg‘on rango-rang gullaridin terib, nazm girihini yeshib, nasr rishtasig‘a tizdim”*. (3b) So‘ng yuqoridagi asardan to‘rt misra she’r keltiradi.

“Shohnomayi turkiy”da ham asar Eron shohlari shajarasi ta’rifidan boshlangan. Dastlab, “Nasri Xamsayi benazir”da “Iskandarnoma”ning kitob tarkibidagi boshqa qissalar singari asosiy voqealar bayoni bilan boshlanmay, Eron shohlari ta’rifi bilan boshlanganligi e’tiborimizni alohida jalb qilgan edi. Ushbu manbani kuzatgandan so‘ng aniq xulosaga kelindiki, Mir Maxdum asarning dastlabki nusxalarini o‘zi nashr qildirgani, undan muayyan darajada fayz topib, o‘ziga tegishli xulosalar olgani, ish tajribasi yanada oshgani ko‘rinib turibdi. Eron shohlari ta’rifini saqlab qolishi, uning o‘tmish adiblar ijodiga bo‘lgan hurmati, an’anaga sodiqlik xislatlarini ko‘rsatadi. Manba tarkibidagi “Iskandarnoma” ham unda bu ishga rag‘bat uyg‘otib, o‘ziga xos dars vazifasini o‘tagan. Aynan shuning uchun ham Navoiy asarlari nasriy bayonlariga qo‘l urgan bo‘lishi mumkin. Tabdilda Iskandar haqida so‘z borganda muallif *“muni qissasi “Shohnoma”da masturdur”* yoki *“G‘iyos ul-lug‘at”da ham mazkurdurur”* tariqasida keltirib o‘tadi. Navoiy dostonida “Shohnoma”dan foydalanganligini qayta-qayta

ta'kidlaydi. Biz tadqiq qilayotgan nasriy bayonda esa Navoiy murojaat qilgan asliyatga ham, undan dunyoga kelgan manbadan ham foydalanilmoqda. Aniqrog'i an'analar manbalardan keyingi manbalarda ham davom ettirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, har ikkala asar ham adabiyotimiz fidoyilarining sa'y-harakatlari natijasida nashr etilib, ommalashtirildi va o'z navbatida bu kabi ishlar o'zbek nasri taraqqiyotiga munosib ulush bo'lib qo'shildi. Bu kabi asarlarning har biri alohida o'rganilib, tadqiq etishga arziydigan manbalardir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев Н. Санъат тарихи. — Т.: Санъат, 2001. — 168 б.
2. Комилов Н. Бу қадимий санъат. Таржима санъати. (Мақолалар тўплами) — Т.: Адабиёт ва санъат, 1976.
3. Насри Хамсаи беназир. Мир Махдум ибн Шоҳюнус. — Т., Орифжонов матбааси, 1908 йил. — 352 б.
4. Шоҳномаи туркий. Мулло Мирзо Хомуший таржимаси. Ношир Мир Махдум Шоҳюнус. — Т., О.А.Порцев матбааси, 1905. 680 б. ЎзРФА ШИ. Ҳамид Сулаймон фонди, инв № 2484.
5. Шоҳномаи туркий. Мулло Мирзо Хомуший таржимаси. — Т., Ширкати хайрия матбааси, 1908 йил. 642 б. ЎзРФА ШИ. Инв № 3528.
6. Шоҳномаи туркий. Мулло Мирзо Хомуший таржимаси. Ноширлар Мулло Сайид Ақобир ва Мулла Муртазо. — Т., Орифжонов матбааси, 1908 йил. 574 б. ЎзРФА ШИ. Ҳамид Сулаймон фонди, инв № 2940.

Sohiba UMAROVA. Hamidjon Homidiy ilmiy-tadqiqot mezonlari	85
Anora TEMIROVA. Navoiy ijodidagi xalqonalik Mallayev talqinida	89
Rohatoy SHERALIYEVA. Hamidjon Homidiy zamondoshlari nigohida	94
Fotima DAVLATOVA. Hamidjon Homidiy adabiy merosi – soʻnmas shamchiroq	101
Mahliyo TOʻRAQULOVA. “Namangan adiblari” kitobining ilmiy-maʼrifiy qimmatini	106
Muhabbat YUSUFALIYEVA. Qardosh xalqlar adabiyotining mohir tarjimoni	111

II SHOʻBA. “AVESTO” VA “SHOHNOMA”NING OʻZBEK ADABIYOTIGA TAʼSIRI

Шодмон ВОҲИДОВ, Гулшарй ШАРИФОВА. Внемли наставлению Хафиза, Хожа, и иди – твори добро...	118
Tohir SHERMURODOV. “Avesto” – insoniy ijod mahsuli	130
Ozoda TOJIBOYEVA. “Shohnomayi turkiy” manbalari	144
Matluba JABBOROVA. “Avesto”da anʼanaviy obraz talqini	151
Sevinch YOQUBOVA. Anʼanaviy timsol va poetik vositalarning tarixiy-adabiy asoslari	162

III SHOʻBA. OʻZBEK MUMTOZ ADABIYOTINING MANBALARI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Margʻuba ABDULLAYEVA. “Maqsad ul-atvor” dostoni gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari	170
Quldosh PARDAYEV. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qoʻqon adabiy muhiti va Muqimiy ijodini oʻrganishning metodologik asoslari	177
Hoshim AHMEDOV. “Boburnoma”dagi baʼzi tafsilotlar haqida	188
Zilola SHUKUROVA. Qoʻqon xonligida tuzilgan bayozlarda erk-ozodlik mavzusining yoritilishi	194